XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-012-6-91-K/24 Namangan shahar

2025-yil uchun Namangan shahar budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksiga asosan hamda Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-son qaroriga muvofiq Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-son qaroriga muvofiq Namangan shahar budjetining 2025-yilgi daromadlari 377 866 799,0 ming so‘m, umumiy xarajatlari esa 377 866 799,0 ming so‘m, shundan Namangan shahar 181 750 117,0 ming so‘m, Davlatobod tumani 106 957 672,0 ming so‘m va Yangi Namangan tumani 89 159 010,0 ming so‘m etib hamda 2025-yil uchun shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 173 131,0 ming so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2025-yil uchun Namangan shahar budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun Namangan shahar budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun Namangan viloyati va Namangan shahar budjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Namangan shahar budjetining 2025-yil uchun bo‘lgan zaxira jamg‘armasi shahar budjetining tasdiqlanayotgan umumiy xarajatining 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin, jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar bundan mustasno.

Bunda, 2025-yil uchun Namangan shahar budjetining zaxira jamg‘armasi jami 5 588 121,0 ming so‘m etib, shundan Namangan shahar 3 249 276,0 ming so‘m, Davlatobod tumani 1 428 896,0 ming so‘m va Yangi Namangan tumani 909 949,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

4. Ushbu qaror “Namangan sadosi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda rasmiy e’lon qilingandan keyin bir kun ichida hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari D.Umurzaqov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

OTAXODJAYEV
ANVAR
XOJAXANOVICH

Xalq deputatlari Namangan shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-012-6-91-K/24 -son qaroriga
1-ilova

№	Daromad turlari	Namangan shahar
	JAMI	**377 866 799**
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	26 025 300
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	90 318 620
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	17 243 000
	Aksiz solig‘i jami	0
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0
	pivo	0
5	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	66 338 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	58 698 479
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	54 084 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	50 258 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	426 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	9 739 400
	shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	2 244 000
13	Davlat boji	0
14	Yig‘imlar	0
15	Jarimalar	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	2 492 000

Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-012-6-91-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Namangan shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Namangan shahar JAMI	shundan		
			Namangan shahar	Davlatobod tumani	Yangi Namangan tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**377 866 799**	**181 750 117**	**106 957 672**	**89 159 010**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	78 754 095	41 314 176	18 958 627	18 481 292
	shundan:				
	"Mening maktabim" loyihasi uchun	*5 777 952*	*3 129 724*	*1 324 114*	*1 324 114*
2	Madaniyat bo‘limi	10 171 809	6 928 711	2 664 745	578 353
3	Yoshlar ishlari agentligi shahar bo‘limi	14 773 752	7 627 425	3 714 622	3 431 705
4	Sport bo‘limi	17 175 541	8 460 069	8 715 472	0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	4 725 425	1 827 155	1 361 871	1 536 399
6	Veterenariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	4 481 674	2 202 749	1 308 165	970 760
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	6 619 728	3 082 888	1 730 246	1 806 594
8	Hokimiyat	139 690 441	64 386 253	38 195 574	37 108 614

	shundan:				
	Ijtimoiy ko‘nikma markazi	*465 886*	*255 296*	*105 270*	*105 320*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*258 000*	*131 500*	*69 000*	*57 500*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*99 925 817*	*44 589 380*	*27 569 962*	*27 766 475*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*5 890 968*	*2 591 975*	*1 821 195*	*1 477 798*
	Zahira jamg‘armasi	*5 588 121*	*3 249 276*	*1 428 896*	*909 949*
9	Hokimiyat	1 374 207	44 343	1 291 746	38 118
	shundan:				
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	*118 009*	*44 343*	*35 548*	*38 118*
	Axborot-kutubxona markazi	*1 256 198*	*0*	*1 256 198*	*0*
10	Hokimiyat (*Obodonlashtirish boshqarmasi*)	100 100 127	45 876 348	29 016 604	25 207 175

Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-012-6-91-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Namangan viloyati 2025 yil uchun ajratma me’yorlari
PROGNOZI

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Namangan shahar	0%	14%	100%	86%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
0 %	100 %	100 %	0%	0 %	100 %	100 %	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	45%	55%	0%	100%	0%	100%	0%	100%